



“QISSASI RABG‘UZIY”DAGI KOSMONIMLARNING LINGVISTIK TAHLILI

Sidiqova Xadiyabonu

Chortoq tumanidagi 49-sonli maktabning

Ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi

Ibrohim Darvishev

Ilmiy rahbar; Phd,

NamDU dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17076223>

Annotatsiya. Maqolada “Qissasi Rabg‘uziy” asaridagi kosmonimlar lingvistik tahlil qilinib, ularning diniy, ramziy va stilistik xususiyatlari ochib beriladi. Kosmonimlarning antroponimlar bilan aloqasi, ularning semantik va madaniy yuklamasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: kosmonim, antroponim, Qissasi Rabg‘uziy, onomastika, ramz, stilistika.

Аннотация. В статье анализируются космонимы из произведения «Киссаи Рабгузи», раскрываются их религиозные, символические и стилистические особенности, а также связь с антропонимами.

Ключевые слова: космоним, антропоним, Киссаи Рабгузи, ономастика, символ, стиль.


Annotation. The article analyzes cosmonyms in Qissasi Rabghuzi, highlighting their religious, symbolic, and stylistic features, as well as their connection to anthroponyms.

Keywords: cosmonym, anthroponym, Qissasi Rabghuzi, onomastics, symbolism, style.

Turkiy yozma yodgorliklarda kosmonimlar qadimiy insoniyatning dunyoqarashi, diniy e‘tiqodi va til boyligini aks ettiradi. Космоним — космик фазода жойлашган самовий объектларнинг атоқли оти¹. Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida Qur‘on oyatlari, hadislar va xalqona rivoyatlar asosida ko‘plab kosmonimlar uchraydi. Ular asarda Allohning qudratini ko‘rsatish, insonni ibrat va sabrga undash hamda axloqiy-ruhiy g‘oyalarni ifodalash uchun qo‘llangan. Ayniqsa, har bir osmon qatining alohida nomlar bilan nomlanishi, ham diniy, ham ilmiy jihatdan e‘tiborga molikdir. Ushbu kosmonimlarni o‘rganish orqali XIV asr va undan oldingi kosmonimiyaga oid diniy tasavvurlar haqida chuqurroq bilib olish mumkin.

Shu o‘rinda Qissasi Rabg‘uziy asaridagi onimlar diniy va tarixiy nomlar sifatida e‘tiborga molikdir. Unda olamning yaralishi va undagi hayot davomida

1





yaratilgan atoqli otlar talaygina. E'tirof etish kerakki, asarda kosmonim va antroponim nomlari orasida o'zaro bir-birini to'ldiruvchi jihatlar, birining nomi biriga ko'chish hodisalari ko'p o'rinda uchraydi. Asarning boshlanishi hamd va na't qismida asosan antroponimlar qo'llangan. Antroponomika aslida grekcha – "odam" va "nom", onomastikaning bir bo'limi.² "Olamning yaratilishi" va "Samolar sifati" qismlarida esa yer yuzining yaratilishi va yetti qavat osmonning har bir qatining nomlari, ya'ni atoqli otlari va ularning ma'nolari qo'llangan. Ushbu nomlarni kosmonimlar deyish mumkin, sababi fazo va undagi element nomlarini kosmonimlar deb ataymiz. Ammo "Qissasi Rabg'uziy"dagi kosmonimlarning boshqa kosmonimlardan farqi shundaki, ular bir vaqtning o'zida faqat diniy mazmuni ifodalovchi sharqona kosmonimlar hisoblanadi. **"Илк қат кўк яшил зумураддин туруп, оти Рафиқ туруп"**.³ Demak, ilk tanishadigan osmon qati bu Rafiq ekan. Rafiq ismi kundalik hayotda kishilar ismi sifatida ko'p uchraydi turadi. Kosmonim nomi antroponim nomiga aylangan. Yoki aksincha bo'lgan holatlarni ham uchratish mumkin. Bu shuni anglatadiki, onomastikaning antroponomika va kosmonomika bo'limlari o'zaro aloqador. Qadimdan Rimdagi Yupiter, Mars, Uran kabi tasavvurdagi iloh nomlari sayyoralar nomiga ko'chgani ma'lum. Hozirgi davrda ham butun dunyo sayyoralarni nomlashda shu kosmonimlarni qo'llab keladi. Asarning davomida yer qatlarining qolgan nomlari va barcha qatlarning nom bilan uyg'un biror moddadan yasalganligi haqida so'z boradi. Kosmonimlar kundalik hayot uchun qadimdan juda muhim hisoblangan. Ayniqsa, ularning yaralishida ilohiylik borligi, inson taqdrini belgilashda ishtirok etishiga qattiq ishonganlar.

Kosmonimlarning asosiy turlari :

1. Quyosh va oyga oid nomlar

Quyosh – hayot manbai, nur va adolat ramzi sifatida tasvirlanadi.

Oy – go'zallik, tun yorug'ligi va vaqt o'lchovi sifatida ishlatiladi. Masalan: "Quyosh chiqsa zulmat yo'q bo'lur, oy chiqsa tun yoruq bo'lur". Bundan tashqari, yangi oy islom olamida "Islom dinining ramzi" sifatida ulug'lanadi.

2. Yulduzlar va samoviy jismlar

Yulduz – yo'l ko'rsatuvchi, hidoyat ramzi sifatida talqin qilingan. Qur'oni karimdagi "Najm" surasidan iqtibos keltirilib, yulduzlar Alloh qudratini ko'rsatuvchi belgi sifatida tushuntiriladi.

²

³Арабғузий, Носир. Қиссаси Рабғузий. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 12.





“Yulduzlar ziynat bo‘ldi, ko‘kka chiroy berdi” kabi saj‘li nasr namunalarida uchraydi.

3. Samoviy makonlar

Arsh, kursiy, falak, osmon, ko‘k kabi diniy va falsafiy kosmonimlar ishlatiladi. Masalan, “Arsh ustida Rahmon o‘lturur” iborasi ilohiy buyuklikni bildiradi. Falak so‘zi taqdir va koinot ramzi sifatida qo‘llangan.

4. Zamonga oid kosmonimlar

Tong, shom, tun, kun kabi vaqt birliklari ko‘pincha diniy ramz sifatida ishlatilgan. “Tong otganda rahmat yog‘ar, shom bo‘lganda duo maqbul bo‘lur” kabi iboralar asarda uchraydi.

Leksik-semantik xususiyatlar. Kosmonimlarning asosiy qismi arabcha va forsha diniy terminlardan iborat (arsh, kursiy, falak). Qadimiy turkiy so‘zlar ham saqlangan: ko‘k, quyosh, oy, tong. Sinonimik qatorlar mavjud: ko‘k – osmon – falak; yulduz – najom. Stilistik vazifasi. Kosmonimlar orqali diniy-ta‘limiy g‘oya beriladi (Alloh qudrati, bandaning ojizligi). Estetik ma‘no: quyosh va oy go‘zallik ramzi sifatida, yulduz esa ziynat sifatida ishlatiladi. Metaforik ma‘no: masalan, “ko‘ngil ko‘kidan oy chiqdi” iborasi ruhiy poklanishni anglatadi.

“Qissasi Rabg‘uziy”dagi kosmonimlar diniy va badiiy qatlamning ajralmas bo‘lagi bo‘lib, ular: qadimgi turkiy til va dunyoqarashni, Qur‘on asosidagi diniy ta‘limotni, xalqona ramziy tasavvurlarni o‘zida mujassam etadi. Asardagi kosmonimlar faqatgina tilshunoslik emas, balki folklor, diniyat va falsafa tadqiqotlari uchun ham qimmatli manba hisoblanadi.

Kosmonimlarning uslubiy va semantik vazifalari

1. Ramziy vazifasi:

Kosmonimlar asarda real obyekt sifatida emas, balki timsoliy ma‘noda ishlatiladi. Masalan, yulduzlar — yo‘l ko‘rsatuvchi, jannat — mukofot, do‘zax — jazolash ramzi.

2. Uslubiy-bezatish vazifasi:

Adib kosmonimlardan badiiy vosita sifatida foydalanib, tasvir kuchini oshiradi. Bu, ayniqsa, payg‘ambarlar qissalarining dramatik lahzalarida seziladi.

3. Ma‘naviy-axloqiy targ‘ibot:

Kosmonimlar orqali o‘quvchi/tinglovchiga diniy saboq beriladi: jannatga yetishish, do‘zaxdan saqlanish, ilohiy nurga ergashish kabi g‘oyalar ilgari suriladi.

4. Dunyoqarashni aks ettirish:

Asardagi kosmonimlar o‘sha davrdagi musulmon turkiy xalqlarning kosmik tasavvuri, islomiy dunyoqarashi va falsafiy qarashlarini o‘zida mujassam etadi. “Qissasi Rabg‘uziy” asarida kosmonimlar muallifning diniy bilim darajasi,





badiiy mahorati va islomiy tafakkurga chuqur singib ketganligini ko'rsatadi. Ushbu kosmonimlar faqat semantik jihatdan emas, balki stilistik, ramziy va didaktik jihatdan ham o'ta muhim vositalardir. Ular orqali o'quvchiga ilohiy haqiqatlar, axloqiy saboqlar va ruhiy poklanish g'oyalari yetkaziladi. Bundan tashqari, bu kosmonimlar turkiy xalqlarning adabiy tafakkurida samarali ishlatilgan onomastik qatlam sifatida o'rganilishi lozim bo'lgan hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Ташкент: Фан, 1965.
2. Vikipediya <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Antroponimika>
3. Рабғузий, Носир. Қиссаси Рабғузий. – Тошкент: Фан, 1990.
4. Qayumov A. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Universitet, 2002.
5. Hasanov B. Qadimgi turkiy til grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2005.
6. Karimov H. O'zbek tilida kosmonimlar tizimi. – Toshkent: Fan, 2018.

